

Bolalar Muqaddas Kitobi
Tasvirlab beradi

Odamzotning
Qatg'usi



...tomonidan yozilgan: Edward Hughes

...tomonidan ilustrasiya qilingan:
Byron Unger; Lazarus

...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan:
M. Maillot; Tammy S.

...tomonidan ishlab chiqarilgan: Bible for Children
www.M1914.org

©2012 Bible for Children, Inc.

Lisenziya: Bu hikoyani chop etishingiz yoki nusha ko'chirishingiz mumkin.
Lekin u sotilmaydi.



Hudo hamma narsani yaratdi! U birinchi Odamni yaratganida Odam hotini Momohavo bilan Adan bog'ida yashar edi. Ular Hudoga itoat qilib bahtli hayot kechirar va Hudoning huzurida rohat farog'atda yashar edilar.






Bir kuni ilon
Momohavoning
oldiga kelib:
"Chindan ham
Hudo, bog'dagi
hech bir
darahning
mevasidan
yemanglar deb
aytdimikin?" -
deb so'radi.





Hotin esa ilonga
shunday dedi:
"Bog' daraxtlarining
mevasidan yeya
olamiz-u, Hudo faqat bog'ning
o'rtasidagi daraxtning mevasini
yemanglar, unga tegmanglar,
bo'lmasa o'lasizlar,
dedi" Ilon hotinni
aldab:" Yo'q mutlaqo
o'lmaysizlar!





“Balki Hudo kabi bo'lasizlar” - dedi. Momohavo darahkning mevasidan yegisi keldi va ilonning gapiga kirib darahkning mevasidan olib yedi.



So'ng eriga ham berdi, eri ham
yedi ammo Odamoto hotiniga:
"Yo'q men Hudoga itoatsizlik
qilmayman" - deb aytishi
kerak edi.





Odam bilan
Momohavo gunoh qilgandan
keyin, ko'zlari ochilib, yalang'och ekanlarini
payqadilar. Anjir barglarini bir-biriga tikib,
o'zlari uchun yopinchiqlar yasadilar va o'zlarini
yalang'ochliklarini yopib Hudodan yashirindilar.



Kunning salqin shabadasi esgan
vaqtda, Hudovandi Karim bog'ga keldi, U
allaqachon, ularning qilgan gunohini bilar
edi va ulardan: "Sizlar menga nima
uchun itoatsizlik qildilaringiz, sizlarga
daraht mevasidan yemanglar deb
aytmaganmidim?"
- deb so'radi.




Shunda Odamat qilgan gunohiga,
hotini Momohavoni aybladi
Momohavo esa ilonni aybladi.
Shundan keyin Hudovand ilonga:
"ilon sen la'natisan, Men seni
lanatladim" - dedi, ayolga esa:
"ayol sen esa mashaaqqat bilan
farzandlar tug'asan"
- dedi.



“Odam sen gunoh qilganing uchun, umring bo'yi mashaqqat chekib, yer undirgan hosildan yeysan” - dedi.



Hudo Odam bilan Momoni
chiroyli Adan bog'idan quvib
chiqardi. Ular gunoh
qilganliklari uchun
Hudoning hayot
bog'idan
mahrum
bo'ldilar.





Hudo bog'da aylanadigan
alangali qilichni qo'ydi.
Keyin ular uchun teridan
yopinchiq
yasab
ularga
berdi.





Odam bilan Momo farzandli bo'lishdi. Ularning birinchi o'g'li Qobil dehqon bo'ldi, ikkinchi o'g'li Hobil esa qo'ychivon bo'ldi.



Bir kuni Qobil yerning mahsulidan Hudoga hadya taqdim etdi. Hobil esa, qo'ylarining kattasidan qurbonlik so'yib Hudog qurbonlik keltirdi. Hudovand Hobilni va uning hadyasini manzur ko'rdi.



Ammo Qobilni va uning hadyasini esa manzur ko'rmadi. Shunda Qobil qattiq ranjib hafa bo'ldi. Hudovand Qobilga: "Agar yahshilikni niyat qilganingda, unda hadyang manzur bo'lar edi" - dedi?



Qobil bunga g'azablandi.
Ular dashtda bo'lgan vaqtda,
Qobil ukasi Hobilga qo'l
ko'tarib uni o'ldirdi.




Shundan keyin , Hudovand Qobildan: "ukang Hobil qayerda?" - deb so'radi. Qobil esa "Bilmayman men ukamning soqchisimi?" -deb javob berdi. Shunda Hudovand Qobilni la'natlab, yer yuzida, sarson-sargardon bo'lib yuradigan qildi.



Shunday qilib Qobil Hudovand huzuridan chiqib ketdi, u boshqa joyga o'rnashib hotiniga uylandi va oilasini boqadigan bo'ldi.



Tez orada Qobilning nevaralari
va evaralari u qurgan shaharda
ko'payib yashadilar.




Bu orada Odamatoning avlodlari ko'payib bordi. O'sha paytlarda odamlar uzoq umr ko'rishganlar.



Uning o'g'li Shit tug'ilgandan keyin Momohavo:
"Hudovand menga Hobil evaziga boshqa
zurriyot berdi" - dedi. Shit hudojo'y
inson edi va u 912 yil umr ko'rdi va
ko'p farzandlar ko'rdi.



O'sha paytlarda odamlar yovuz bo'lib yomonlik orqasidan boradigan bo'lishdi va Hudo odamzotni yer yuzidan qirib tashlashga qaror qildi.



Hudovand odamzotni yaratganida
pushaymon bo'ldi. Lekin yer
yuzida bir odam Hudo bilan
yurar edi.



Bu odam Nuh payg'ambar edi.
Shitning zuriyoti Nuh payg'ambar
solih va nuqsonsiz inson edi.



U o'zining uch o'g'liga Hudoga itoat qilib yashashni o'rgatdi. Hudovand Nuhni mahsus ajoyib reja uchun qo'lladi.



Odamzotning Qatg'usi

Hikoya Hudo Kalomi Injildan olingan

...dan topilgan

Ibtido 3-6

"Kaloming ochilib qolganda ziyo ochar."

Zabur 119:130



Hikoya tugadi



Bu Kalomdagi Hikoya bizlarga, Hudoning bizlarni ajoyib qilib yaratganligi haqida va biz Uni tanib bilishimiz qanchalik muhim ekanligi haqida hikoya qilib beradi.

Hudo, biz ko'p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim lekin Hudo olamni shunchalik sevdiki O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun hochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Unga ishongan kishi halok bo'lmaydi balki abadiy hayotga ega bo'ladi. Agar siz Isoga ishonsangiz, Undan gunohlaringiz uchun kechirim so'rang, U gunoharingizni kechiradi. U sizning yuragingizga kelib yashaydi va siz U bilan abadiy yashaysiz.

Agar siz bu so'zlar haqiqatligiga ishonsangiz, Hudoga shunday deb ayting:
Qadrli Iso, Men Sening Hudoliginga ishonaman, Sen yer yuziga kelib mening gunohlarim uchun o'lding, va Sen yana hozir tiriksan va bir kuni men sen bilan abadiy bo'laman. Men hozir yangi hayot bilan yashayman, iltimos mening hayotimga kel, men Senga itoat qilishim uchun va Sening frazanding bo'lishim uchun yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Hudo bilan har kuni suhbatlashing!
Yuhanno 3:16

